



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

$$\left(\frac{T_1}{T_2}\right)^2 = \left(\frac{a_1}{a_2}\right)^3$$



TADQIQOTLAR



ILM-FAN



TEKNOLOGIYALAR

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2025



Google Scholar



zenodo



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN
KONFERENSIYASI TO'PLAMI

2-JILD 5-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro
ilmiy bazalarda indexlanadi

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



OpenAIRE



Academic
Resource
Index
ResearchBib



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025



INTERNET VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'SMIR TAFAKKURIGA
PSIXOLOGIK TA'SIRI

Xalimjonov Abduqunduz Raximjon o'g'li

Qo'qon universiteti Andijon filiali o'qituvchisi,

Toshtemirova Mehrinoz Mirsodiqjon qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali 1-bosqich talabasi

+998 93 553 85 57

e-mail: toshtemirovamehrinoz@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada internet va axborot texnologiyalarining o'smir tafakkuriga ko'rsatadigan psixologik ta'siri tahlil qilingan. Raqamli muhitda ulg'ayayotgan o'smirlar ongida yuz berayotgan kognitiv, emotsional va ijtimoiy o'zgarishlar ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan. Maqolada internetdan foydalanishning ijobiy va salbiy jihatlarini, uning tafakkur jarayonlariga, tanqidiy va ijodiy fikrlashga, diqqat va refleksiya qobiliyatlariga ta'siri ko'rib chiqilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar sharoitida o'smir tafakkurini sog'lom shakllantirish uchun ota-onalar, pedagoglar va psixologlarning o'rnini alohida ta'kidlangan. Tadqiqot natijalari o'smirlarning raqamli xulq-atvorini boshqarish, axborot gigiyenasini shakllantirish va internetdan samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, tafakkur, internet, axborot texnologiyalari, raqamli muhit, psixologik ta'sir, axborot gigiyenasi, tanqidiy fikrlash, diqqat, virtual muloqot.

Annotation. This article analyzes the psychological impact of the internet and information technologies on adolescent thinking. Scientific perspectives are provided on the cognitive, emotional, and social changes occurring in the minds of adolescents growing up in a digital environment. The article examines the positive and negative aspects of internet usage, its effects on thinking processes, critical and creative thinking, attention, and reflection abilities. Additionally, the role of parents, educators, and psychologists in fostering healthy adolescent thinking in the context of digital technologies is emphasized. The research results highlight the need to develop practical recommendations for managing adolescents' digital behavior, forming information hygiene, and using the internet effectively.

Keywords: adolescence, thinking, internet, information technologies, digital environment, psychological impact, information hygiene, critical thinking, attention, virtual communication.

Аннотация. В данной статье проанализировано психологическое влияние интернета и информационных технологий на мышление подростков. Научно освещены когнитивные, эмоциональные и

социальные изменения, происходящие в сознании подростков, растущих в цифровой среде. Рассмотрены положительные и отрицательные стороны использования интернета, его влияние на мышление, критическое и творческое мышление, способность к концентрации и рефлексии. Особое внимание уделено роли родителей, педагогов и психологов в формировании здорового мышления подростков в условиях цифровых технологий. Результаты исследования показывают необходимость разработки практических рекомендаций по управлению цифровым поведением подростков, формированию информационной гигиены и эффективному использованию интернета.

Ключевые слова: подростковый возраст, мышление, интернет, информационные технологии, цифровая среда, психологическое влияние, информационная гигиена, критическое мышление, внимание, виртуальное общение.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar, internet tarmoqlari va ijtimoiy media platformalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha jabhalariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda [1,112]. Ayniqsa, o'smir yoshdagilar orasida axborot texnologiyalaridan foydalanishning keskin ortishi ularning tafakkur, hissiy holati, ijtimoiy munosabatlari va qadriyat tizimiga sezilarli o'zgarishlar kiritmoqda. [2,85] O'smirlik davri inson psixikasining shakllanishida eng muhim bosqich bo'lib, bu davrda tafakkur, dunyoqarash, mantiqiy fikrlash va o'z-o'zini anglash jarayonlari faol rivojlanadi. Shu bois, internet va axborot texnologiyalarining o'smir tafakkuriga ta'sirini o'rganish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega [3,56].

O'smirlar internetdan ta'lim, muloqot, o'yin yoki ko'ngilochar maqsadlarda foydalanadilar. Raqamli vositalar ularning axborotga tez kirishish, tahlil qilish va solishtirish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu jarayon tafakkurning moslashuvchanlik va tezkor fikrlash jihatlarini kuchaytiradi. Shu bilan birga, axborotning haddan tashqari ko'pligi ularning diqqatini bo'lish, chuqur fikrlashga to'sqinlik qilish kabi salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqaradi [5,36].

O'smirlarning tafakkuri shakllanayotgan paytda ularning aqliy faoliyati ko'proq obrazli va emotsional bo'ladi. Internet orqali turli vizual, dinamik va qisqa shakldagi kontentlarni ko'p iste'mol qilish natijasida ularda tezkor, ammo yuzaki tahlil qilishga moyillik kuchayadi. Bu holat tafakkur jarayonlarining chuqurligiga, sabr-toqatga va konsentratsiyaga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Internet va axborot texnologiyalari o'smirlarning intellektual salohiyatini oshirishda ham muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy o'quv platformalari (Khan Academy, Coursera, Udemy va boshqalar) orqali



o'quvchilar o'z qiziqishlariga mos bilimlarni mustaqil egallaydilar. Bu esa tafakkurning mustaqilligi, ijodkorligi va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.

Shuningdek, internetdagi muloqot platformalari o'smirlarning ijtimoiy tajribasini kengaytiradi, turli madaniyat va qarashlarga ochiqligini oshiradi. Raqamli o'yinlar va interaktiv dasturlar esa strategik fikrlash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi [6,121]. Bundan tashqari, o'smirlar o'z qiziqishlariga mos onlayn jamoalarga qo'shilish orqali o'zini anglash, o'z fikrini ifoda etish va shaxsiy qadriyatlarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayonlar tafakkur rivojiga ijobiy turtki beradi.

Internetning o'smir tafakkuriga ta'siri har doim ham ijobiy bo'lavermaydi. So'nggi yillarda olib borilgan psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli muhitga haddan tashqari berilib ketish o'smirlarning tafakkuri, hissiyati va ijtimoiy munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda [8, 3]

Axborotning haddan tashqari ko'pligi o'smir tafakkurining konsentratsiya va tanqidiy tahlil qobiliyatini pasaytiradi. Har kuni yuzlab postlar, videolar, yangiliklar bilan to'qnash kelgan o'smir ongida "axborot charchoqligi" vujudga keladi. Bu esa ularning diqqatini bir joyga jamlashni qiyinlashtiradi, chuqur tahliliy fikrlash jarayonini sekinlashtiradi.

Ijtimoiy tarmoqlarda o'zini taqqoslash hodisasi o'smirning o'ziga bahosini o'zgartirib, psixologik bosimni kuchaytiradi. "Like"lar soni, obunachilar, tashqi ko'rinishga oid izohlar o'smirda o'zini boshqalar bilan solishtirish ehtiyojini uyg'otadi. Natijada, o'ziga ishonchsizlik, o'zidan norozilik, past baholash hissi shakllanishi mumkin. Bu holatlar tafakkurning barqarorligiga, real voqealarni mantiqan tahlil qilish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Internetga qaramlik muammosi ham keng tarqalmoqda. O'smirlar ko'pincha vaqtni onlayn o'yinlar, ijtimoiy tarmoqlar yoki video platformalarda o'tkazadilar. Natijada, ular real hayotdagi ijtimoiy muloqot, o'qish, sport yoki ijodiy faoliyatga qiziqishni yo'qotadilar [8,780]. Internetga qaramlik tafakkurning passivlashuviga, voqelikni virtual ko'rinishda qabul qilishga olib keladi.

Shuningdek, internetdagi anonimlik va chegarasiz erkinlik hissi o'smirlarni ba'zan mas'uliyatsiz yoki beparvo fikrlashga o'rgatadi. Bu holat ularning tafakkurida tanqidiy yondashuv o'rniga impulsiv (tezkor, emotsional) fikrlashni kuchaytiradi. Axborot texnologiyalaridan noto'g'ri foydalanish natijasida o'smirlar orasida diqqat buzilishi, virtual qaramlik, informatsion stress kabi psixologik muammolar ko'paymoqda. Bu holatlar tafakkurning tahliliy, refleksiv va mantiqiy jihatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'smir tafakkuriga internetning ijobiy ta'sirini kuchaytirish va salbiy oqibatlarini kamaytirishda ota-ona, o'qituvchi hamda psixologlarning o'rni beqiyosdir. Ota-onalar farzandlarining raqamli faoliyatini nazorat qilish bilan birga, ularni tanqidiy fikrlashga, vaqtni to'g'ri taqsimlashga o'rgatishlari lozim. Maktab psixologlari o'smirlarning internetdan foydalanish madaniyatini shakllantiruvchi treninglar o'tkazishlari, ijobiy kontent tanlash bo'yicha tavsiyalar berishlari zarur. O'quv jarayonida raqamli texnologiyalarni to'g'ri qo'llash -masalan, onlayn testlar, vizual o'quv dasturlari, psixologik o'yinlar - tafakkur faoliyatini rivojlantirishda samarali vosita bo'la oladi.

Xulosa

Internet va axborot texnologiyalari o'smir tafakkurini shakllantiruvchi eng muhim omillardan biridir. Ular orqali o'smirlar yangi bilimlar, madaniyatlar va tajribalarga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, raqamli muhitning haddan tashqari ta'siri tafakkurning yuzaki, tezkor, ammo emotsional shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli, internetdan oqilona foydalanish, raqamli gigiyena qoidalariga amal qilish, axborotni tanqidiy tahlil qilishni o'rgatish o'smir tafakkurini sog'lom shakllantirishning asosiy shartlaridandir. Ota-onalar, pedagoglar va psixologlar birgalikda bu jarayonni boshqarish orqali o'smirlarning aqliy va ruhiy salomatligini himoya qilishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimova V. M. Umumiy psixologiya. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2020. – 456 b.
2. G'oziyev E. G'. Shaxs psixologiyasi.-Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 389 b.
3. Zunnunov A., Alimova M. O'smirlik davri psixologiyasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019. – 212 b.
4. To'rayev N. Axborot texnologiyalarining yoshlar ongiga ta'siri. "Psixologiya va pedagogika muammolari" jurnali. – 2022. – №4. – B. 45–52.
5. Rasulova D. Internet tarmoqlarining o'smir shaxsiga psixologik ta'siri. "Zamonaviy ta'lim" ilmiy jurnali. – 2021. – №6. – B. 33–39.
6. Musurmonova O. Axborot texnologiyalari va yoshlarning tafakkuri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – 184 b.
7. Anderson, C. A., & Dill, K. E. (2000). Video games and aggressive thoughts, feelings, and behavior in the laboratory and in life. *Journal of Personality and Social Psychology*, 78(4), 772–790.
8. Prensky, M. (2001). Digital Natives, Digital Immigrants. *On the Horizon*, 9(5), 1–6.
9. Rideout, V., Foehr, U. G., & Roberts, D. F. (2010). Generation M²: Media in the Lives of 8-to 18-Year-Olds. Kaiser Family Foundation Report.

